



AXBOROTLASHGAN ZAMONAVIY JAMIYATDA BO‘LAJAK MENEJERLAR KASBIY MOBILLAGINI RIVOJLANTIRUVCHI TA‘LIMNI TASHKIL ETISH

Nizamova M. N.

Namangan davlat universitetining Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kasbiy mobillik, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiya, , ilm-fan, ta‘lim jarayoni, boshqaruv tizimi, zamonaviy texnologiya, axborot ta‘lim.

Ключевые слова: профессиональная мобильность, инновационные подходы, современные технологии, наука, образовательный процесс, система управления, современные технологии, информационное образование.

Key words: professional mobility, innovative approaches, modern technology, science, educational process, management system, modern technology, information education.

Резюме: Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalari tizimini boshqarishda bo‘ljak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, kasbiy mobillik, Ta‘lim tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassislik fanlari bo‘yicha zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlar yaratish samaradorligini oshirish, xalqaro amaliyotga muvofiq o‘quv rejalari hamda fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarida ta‘limni tashkil etgan holda o‘quv jarayonini zamon talabiga sifat jihatdan yangilab borish lozimligi yoritilgan.

Резюме: В данной статье рассмотрены инновационные подходы к развитию профессиональной мобильности будущих управленцев в системе управления высшими учебными заведениями, профессиональной мобильности, внедрению современных технологий в систему образования, современному образованию и подготовке кадров в сферах образования и образования. специализации Подчеркивается необходимость повышения эффективности создания учебно-методической литературы, совершенствования учебных планов и научных программ в соответствии с международной практикой, модернизации образовательного процесса путем организации обучения с использованием средств информационно-коммуникационных технологий.

Summary: In this article, innovative approaches to the development of the professional mobility of future managers in the management of the system of higher education institutions, professional mobility, the introduction of modern technologies into the educational system, modern education and training in the fields of education and specialization. It is highlighted the need to improve the effectiveness of creating teaching and methodical literature, to improve curricula and science programs in accordance with international practice, to modernize the educational process by organizing education using information and communication technology tools.

Har qanday buyuk va iqtisodiyoti taraqqiy etgan zamonaviy davlatlarning rivojlangan darajaga yetishlarida ta'lim tizimini, xususan, oliy ta'lim tizimini o'rni beqiyosligini inkor etib bo'lmaydi. Oliy ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda rivojlantirish, tizimda innovatsiyalarni joriy etish, innovatsion boshqaruvni tashkil etish va doimiyligini ta'minlash asosida, jahondagi eng yetakchi oliy talim muassasalari bilan raqobatga kirisha oladigan darajaga olib chiqish maqsadida uzluksiz va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori va boshqa ta'lim tizimini isloh qilishga doir yuzlab qonun, qaror, farmon, qonun osti hujjatlar, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim tizimi boshqaruvida asosiy me'zonlar sifatida xizmat qilib, Yangi O'zbekiston taraqqiyotini belgilovchi avlodlarni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun zamin yaratmoqda.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvni isloh qilish, tizimda amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish maqsadida yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 11-iyulda "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli Qarori tasdiqlandi. Qarorda "...oliy ta'lim muassasalari, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari mehnatini iqtisodiy rag'batlantirish, ularning mehnatiga haq to'lash miqdorlari oshirilishini ta'minlash, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, samarali boshqaruv tizimini joriy etish" 84 kabi vazifalar asosiy etib belgilandi.

Jamiyatimizda ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish shu bilan birga ijtimoiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, ilm-fan sohasini ham innovatsion faoliyatini ta'minlash borasida keng qamrovli faoliyat kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari



va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” [1] ko‘zda tutilgan.

Kasbiy mobillikning nazariy modeli tadqiqotchi olim L.V.Goryunova tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u “kasbiy mobillik modeli shaxsning ta‘lim sohasida kasbiy kompetensiyalardan iborat yaxlitlik, o‘zgarishlarga tayyorlik va faollik kabi sifatlardan tarkib topgan” degan fikrni bildirgan. Tadqiqotchi zamonaviy dunyoning “yuqori darajadagi turbulentslik” sharoitida o‘qituvchi uchun uzluksiz o‘qish va qayta o‘qish, o‘zgarishlarga tezkor moslashish, mustaqil ravishda o‘z mavqeini oshirib borishni boshqarish imkonini beruvchi tuzilma va qobiliyatlarning muhimligini asoslaydi.

Rus pedagog olimlaridan E.A.Poddubskayaning fikricha, ushbu tushunchaning mohiyatini ta‘lim oluvchilarning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida birlashgan hamda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan komponentlarning murakkab tizimini ifodalashi, ta‘lim jarayoni nuqtai nazarida pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish mumkin. Tadqiqotchi kognitiv mobillikni pedagogik hodisa sifatida talqin qilgan ekan, uni qadriyatli-mazmunli, rivojlantiruvchi-bashoratlovchi, tartiblashtiruvchi-korreksion va reflektiv-rag‘batlantiruvchi funksiyalari orqali yoritish mumkinligini e‘tirof etadi.

V.I. Zagvyazinskiy pedagogikadagi yangi tushunchaga ta‘rif berib, u faqatgina g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo‘lib, o‘zgarib turuvchi sharoitda, vaziyatda ta‘lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg‘or boshlanmalarini o‘zida aks ettiradi. Pedagogik innovatsiyalar - bu maqsadlarga samarali erishishga yordam beradigan ta‘lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o‘tkazish va baholash jarayoni. Ular orasida: ta‘lim jarayoni vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, mehnat bozori bo‘lajak xodimlarga yangi talablarni qo‘yadi va o‘qitish o‘zgartiriladi, yangi maqsadlarga moslashtiriladi, bunga erishish uchun yangi pedagogik usullar, uslublar va usullar zarur.

Ta‘limdagi innovatsiyalar quyidagi maqsadlarga erishishda yordam beradi:

- Ta‘lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish;
- Talabalarning kognitiv faolligini faollashtirish;
- Ta‘lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish;

O‘quv materialining metodika va didaktika nuqtai nazaridan o‘zgartirishlari. Ta‘limga yondashuv – bu yangi texnologiyalar uchun asos bo‘lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to‘plami. Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil,



pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, ekspert baholash, test, loyihalashtirish, ilmiy umumlashtirish, modellashtirish, matematik-statistik tahlil hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Ilm-fanda yaratilayotgan yangiliklar, texnika va texnologiyalarning zamonaviy ko‘rinishlari jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalariga jadal taqdim etilmoqda va bu orqali jamiyat va inson farovonligini ta‘minlanishida ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar zamonaviy axborot almashinuvi, yangi pedagogik kommunikatsion texnologiyalarning salmoqli imkoniyatlari bilan bog‘liq holda global miqyosda tarqalmoqda va yangicha mohiyat kasb etmoqda. Bu esa, insonning texnika va texnologiyalarni yaratish bilan bog‘liq imkoniyatlari ko‘lamining jadal kengayib borayotganligidan dalolatdir. Ta‘lim tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassislik fanlari bo‘yicha zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlar yaratish samaradorligini oshirish, xalqaro amaliyotga muvofiq o‘quv rejaları hamda fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarida ta‘limni tashkil etgan holda o‘quv jarayonini zamon talabiga sifat jihatdan yangilab borish lozim

Axborotlashgan jamiyatda yoshlarning global axborot tizimi bilan bemalol tillasha olish, axborot madaniyatini shakllantirishda, zamonaviy tamaddun maqsadlari va muddaolariga javob bera olishga oid innovatsion qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifaga aylandi. Globallashtirish jarayonlarining bugungi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish sharoitida jiddiy texnik-texnologik raqobat muhiti yuzaga kelmoqda. Fuqarolar ayniqsa, yoshlarning zamonaviy innovatsion an‘analarni egallashlarida va ularga javob bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga ma‘lum muammolar vujudga kelmoqda. Shu boisdan ham axborotlashgan zamonaviy jamiyatda yoshlarning innovatsion dunyoqarashini tezkor va mukammal asosda shakllantirish va rivojlantirish masalalarini ilmiy asosda tahlil etib, muhim xulosalar, zaruriy metodik tavsiyalar, maslaxatlar ishlab chiqish dolzarb mohiyat kasb etmoqda.

Hozirda bo‘lajak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish, boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun elektron didaktik vositalarni ishlab chiqish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ob‘ektiv baholash mexanizmlarini yaratish, ta‘lim jarayonida axborot ta‘lim muhitini takomillashtirish ta‘lim tizimi oldida turgan muhim masalalar sifatida e‘tirof etiladi. Chunki, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb masala sifatida belgilanmoqda. Ijtimoiy va ma‘rifiy sohalarini jadal rivojlantirish, mavjud ilmiy-



intellektual hamda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda

Xulosa, innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimini modernizatsiyalash va ta'lim samaradorligiga erishishning asosiy shartidir. Zero, bugungi kun yoshlarining tanlagan sohasiga qiziqishlarini yanada oshirish, layoqati bor yoshlarni ta'limga va tanlagan mutaxassisligiga to'g'ri yo'naltirish ta'lim-tarbiyada erishajak yutuqlarimiz samarali bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan yangiliklarni o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan amalyotda ishlay olishga o'rgatishdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

2. Горюнова Л.В. Профессиональная мобильность специалиста как проблема развивающегося образования в России. автореф. дис. на соиск. учен. степ. д-ра пед. наук. Специальность 13.00.08 – Теория и методика проф. образования. – Ростов-на-Дону, 2024.

3. Горюнова Л.В. Составляющие профессиональной мобильности современного специалиста // Ростовский государственный педагогический университет сборник научных трудов «Естествознание и гуманизм», – Ростов-на-Дону, 2005. – Т.2, вып. 5. – С. 8–11.

4. Nizamova, M.N. & Murtozaeva, M.M. (2022). Pedagogical Mechanisms of Developing Professional Mobility of Future Managers // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866, Vol.2 Issue 1.5. – R. 997-1007.

5. Muyassar, N. (2023). Oliy ta'lim tizimlarida kasbiy mobillikni rivojlantirish va ular asosida pedagogic mexanizmlarni takomillashtirish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 12-15.